

Ya'qub va uning bolalari



13:00 / 06.06.2019 2221

19

Ular otalarining oldiga qaytib kelib, bo'lib o'tgan voqeani aytib: "Biz bilan birga ukamizni yubor. Agar qo'shib yubormasang, hokimning huzurida yaxshilikka erisha olmaymiz", dedilar.

Ya'qubdan Binyaminni talab qilib: **«Albatta, biz uni muhofaza qiluvchilarmiz», deyishdi.**

Ya'qub esa: **«Uni sizlarga xuddi akasini ishonganimdek ishonib topshiraymi?»**. Sizlar Yusuf qissasini unutdingizmi? Sizlar Binyaminni xuddi Yusufni himoya qilgandek himoya qilasizlarmi? **«Allohning O'zi eng yaxshi muhofazachi va Uning O'zi rahmlilarning eng rahmlisidir»**, dedi.

Ular (yuklarini ochib qaraganlarida) o'zlarining mollari qaytarilganini ko'rib, otalariga: «Hokim saxovatli kishi ekan. U bizning molimizni shundog'icha qaytarib, bir chaqa ham olmabdi. Biz bilan Binyaminni yuboring, biz uning ham haqqini olamiz», deyishdi.

Ya'qub ularga: **«Toki menga, albatta huzurimga qayta keltirishingiz haqida Allohdan vasiqa bermaguningizcha, uni zinhor siz bilan yubormasman. Magar (halokatga) o'ralib qolsangiz boshqa gap»**, dedi.

Ular Alloh nomiga qasam ichib, Ya'qubga: «Aytgan gaplarimizga Alloh vakildir», deyishdi.

Ya'qub bolalriga: **«Ey o'g'illarim, bitta eshikdan kirmanglar, turli eshiklardan kiringlar»**, dedi.